



ALISHER NAVOIY “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONING 9-SINF ADABOYOT
DARSLIGIDAGI GERMENEVTIK TAHLILI ASOSIDA

Erkinova Gulmira Farxod qizi

2- kurs magistranti, Sharof Rashidov nomidagi SamDU

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Navoiy asarlari o‘zbek adabiyotining eng katta bebaho qismini tashkil qiladi. Shulardan eng sara asarlar asosan “Xamsa”da jamlangan. Ushbu maqolada “Farhod va Shirin” dostonining tahlili haqida atroflicha bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiy meros, doston, tahlil, Komil inson tasviri, falsafiy qarashlar, epik asarlar, germenevtika va h.k.

Abstract: Navoi's works are the most valuable part of Uzbek literature. The best of these works are mainly collected in "Khamsa". This article describes the analysis of the epic "Farhod and Shirin" in detail.

Key words: literary heritage, epic, analysis, image of the Perfect Man, philosophical views, epic works, hermeneutics, etc.

KIRISH

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy barcha asarlarida komil inson obrazini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan va bunga to‘liq erishgan. Adibning mukammal inson haqidagi orzu – o‘ylari, ayniqsa, “Xamsa”ning ikkinchi dostonidagi Farhod timsolida o‘z ifodasini topgan. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim, prof. G. Karimov quyidagilarni bayon etadi: “Ulug‘ san’atkor va donishmand mutafakkir Navoiy inson va uning ichki his – tuyg‘ulari to‘g‘risida so‘zlaydimi, koinot kengliklaridan bahs ochadimi yoki bo‘lmasa kichik lirik she‘rlarida muhabbat qo‘shig‘ini to‘qiydimi, lirik, epik asarlarida tiyran falsafiy tushunchalarni bayon etadimi — hamma o‘rinda, u yoki bu munosabat bilan gul va gulshandan bahs ochadi... Navoiy yaratgan bog‘ning kishini hayratga soluvchi gulshani bu uning “Farhod va Shirin” dostonidir. Adib ushbu asarni yozishga kirishar ekan, bu ko‘hna sharq afsonasini yangi mazmun bilan boyitib, unga yangicha ruh va bo‘yoq berishga jazm qilganini aytadi va shunday yozadi:

Oni nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,

Ulusqa mayl beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,

Muqarrar aylamak sandin na loyiq.”

Manbalarda keltirilishicha, “Germenevtika” (grekcha hermeneutike) - “o‘rganish, sharhlash” yoki “tushunish”, “tushuntirib berish”singari ma‘nolarni bildiradi. Aytish joizki, germenevtika atamasi mumtoz adabiyotshunoslikda “sharh”, “tavsir” atamaları bilan yonma-yon turadi. Shuning uchun badiiy asarlarning mohiyatini anglash, kelajak avlodga tushunarli tarzda yetkazib berishda germenevtik usulga tayanilgan. Qadimda germenevtika atamasiga “ tarjima san‘ati”, “tavsiflash san‘ati” deya baho berilgan. Badiiy asar muallifi hamda kitobxon o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot ko‘prigi, ya‘ni axborot almashinuvi



jarayonlarining darajasini belgilashda hermenevtika usuli juda ahamiyatli sanalgan. 9-sinf adabiyot darsligida berilgan parchada o'quvchilarga "Farhod va Shirin" dostonini tahlil qilishga, xulosa chiqarishga yordam beradi.

TAHLILIJ JARAYON

Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, har bir band aslida hermenevtik tahlil talab qilishini alohida aytib o'tish joiz. Buning boisi Navoiy asarlari tili birozgina bizning oddiy o'zbek tilidan uslubi hamda lug'atga boyligi bilan farq qilinadi. Unda eski Turkiy tilga mansub so'zlarni esa maxsus Navoiy tili lug'ati asosida o'qishimiz hamda tushunishimiz mumkin.

Mamlakatimizning mustaqilligi davrida umumta'lim maktablari, kollej, litseylar uchun adabiyot darsliklarning yangi avlodi yuzaga keldi. Bu darsliklar albatta mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda mumtoz adabiyotimizning va hozirgi o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari kiritilgan. Darsliklar albatta, ilmiy didaktik tomondan o'quvchilarning yoshi, bilimi va ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan. Ma'lumki, "Farhod va Shirin" mavzusiga ko'ra, ishqiy-romantik dostonidir. Bu dostonida juda ham jozibali, sammiy va ilohiy ishq tasvirlanga. Maktab o'quvchilarining bu sammiy va ilohiy ishqqa bo'lgan munosabatlari albatta o'zgacha. Maktab darsliklarida Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni tarkibidagi beshta doston ham mazmun va hajmiga qarab sinflarga bo'lib berilgan. "Farhod va Shirin" dostoni esa 9-sinf o'quvchilari uchun darslikda berib o'tilgan. Dars rejasida jami o'n ikki soat vaqt ajratilgan, shundan ikki soati nazorat ishi (insho) uchun berilgan. Bundan ko'rinadiki, maktabda ta'lim olayotgan yosh avlodni ma'naviy, barkamol, yetuk va albatta komil inson qilib tarbiyalash birinchi o'rindagi maqsadimiz ekan. Aslida ulug' shoirning hamma she'rlarida, asarlarida deyarli ishqiy bir uzilish, intizorlik tuyg'ulari tarannum etiladi. Shoirning asosiy ilhom manbayi ishqdir. Maqolada Farhodning Shiringa bo'lgan ishq inkishofida Navoiy muhim ijtimoiy, hayotiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarur masalalarni hal qilishga intilgani, shu bilan birga dostonidagi bosh g'oya ma'naviy ozodlikka, axloqiy kamolotga erishish, qora kuchlarga qarshi kurash, maqsad uchun toj-taxtdan, hayot lazzatidan va hatto o'z umridan kecha oladigan kuchli iroda sohibi bo'lish kerakligi aytilgan. Farhodidagi bu jihatlarda esa, shubhasiz, maktab o'quvchisining nazaridan chetda qolmaydi. Tadqiqotning diqqatga sazovor jihati shundaki, muallif asar qahramonlariga o'ziga xos ta'riflar beradi. Ularga oddiy insonlarga xos bo'lgan o'lchovlar orqali yondashish hech qanday natija bermasligini, shaxsiyatlarida buyuk g'oyalarni ifoda qiluvchi qahramonlarning ishlari, intilishlari oddiy insoniy o'lchovlar doirasiga sig'masligini alohida ta'kidlaydi. Bu g'oyalar ham albatta o'quvchiga ozgacha ruh bag'ishlaydi. Muallif bir o'rinda dostonidagi qahramonlikni "shuurli, billuriy toza va ideal" deb ta'riflaydi. (Hamid Olimjon esa Farhodni insonning billur obrazi, deb atagan edi) Farhod – kurashuvchan, faol shaxs. U tinch, shohona hayot kechirishdan ko'ra maqsadini amalga oshirishda ming bir mashaqqatni afzal biladi. Uning komillik darajasiga yetgunigacha bo'lgan vaqt orasidagi voqealar davomida yosh kitobxon o'quvchi ham Farhod kabi komillik sari intila boradi. Undagi har bir harakat olijanoblikka, qahramonlikka va asil intilishlarga guvohlik beradi. O'z sevgisi yo'lida hatto jonidan kechishga ham tayyor. Shu o'rinda yozuvchi Oybek Farhodni maktab darsliklarida berilmagan "Xamsa"ning yana bir obrazi - Majnun bilan o'zaro taqqoslaydi. "Majnun" kurashchan ruhga ega emas. U o'zining qudratli irodasini



maqsad yo'lida, Layliga erishish yo'lida harakatga keltirmaydi. Uning kuchi, irodasi taqdirning dahshatli zarbalariga ajoyib mardona tob berishga qaratilgan. Uning stixiyasi allaqanday xayoliy ishq bo'lib qoladi. Baxtsiz ishqning dard-hasrati unga g'izo, ayriqlik azoblari unga rohat va orom bo'lib qoladi. Majnun o'z sevgisi yo'lida uchragan to'siqlarga qarshi kurashmadi. U jabr-zulmni qarg'adi, lekin uni poymol qilish uchun qo'l ko'tarmadi. Ojiz va tanho oshiq shoir haqsizliklarni bartaraf qilish imkoniyatidan mahrum qolgach, o'zining faji" vaziyatini o'z qismati, o'z "yozmishi" kabi qabul etdi". To'g'ri, Oybek Majnun tabiatidagi sof ishq g'alabotini yetaricha baholay olmagan. Ammo ijtimoiy, maishiy hayot tasviri nuqtayi nazaridan Oybekning Majnunga tavsifi o'zini oqlaydi. Biroq biz bu o'rinda davr, mafkuraviy qarashlar va siyosiy muhit bilan bog'liq ma'naviy bo'htonlarni ham unutmashimiz kerak. Shu ma'noda, maqolada Farhod siymosi biroz idellashtiriladi. Oybek Farhod botinidagi sifatlarni juda chiroyli tasvirlaydi. "Farhodda buyuk ishq natijasida egoizm tamom yo'qolgan. Unda digarkomlik tuyg'ulari kuchli". Farhod shaxsiyatidagi olijanoblik uning kanal qazuvchilarga bergan beminnat yordamida, samimiyatida yaqqol ko'rinadi. Navoiy o'z umri davomida ilm, san'at va hunar egalarini qattiq hurmat qilgan, e'zozlagan. O'z asarlarida ham shu masalalarga katta e'tibor qaratgan. Dostonning chuqur tahliliga kirishgan Oybek ham ulug' shoir asarlarida hunar va san'at odamlari juda samimiy va chuqur sevgi bilan tasvirlanganini qayd etadi. Farhod, Shopur, Qoran, Moniy, Boniy, Mehinbonu, Shirin va uning atrofidagi o'n kanizak zimmalariga ana shunday buyuk vazifa yuklatilganini ko'rishimiz mumkin. 9-sinf adabiyot darligida berilgan parchada ham qahramonlarning qat'iyati, ziyrakligi, ular ilmni, hunarni shunchaki o'rganishmaganligi yaqqol ko'rsarib berilgan. Xalqning koriga yaraydigan, uning og'irini yengil qiladigan, yaratuvchilik, obodonchilik ishlarini amalga oshirishda ulardan unumli foydalandi. Darslikdagi parchada o'quvchilar yana shu narsani anglashadiki, Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari uchun hayot masalasi tog' qazib, tosh kesib suv keltirish – hayot yaratishdir. Shuning uchun ham Navoiy Farhodni ishqiy sarguzasht ketidan quvadigan oddiy ishq bolasi qilib qo'ymagan, uning zimmasiga shoirning orzu-istaklari, ozod va obod mamlakat qurish motivlari yuklatilgan.

XULOSA

Xullas, sharh va izohlar san'ati bo'lmish germenevtika usuli orqali badiiylik, badiiy san'atlar, ko'chim turlari, g'azaldagi shakl va mazmun mutanosibligini hisobga olgan holda, lug'atlarni ilova qilib, tahlil qilinadi. G'azal tahlilining bunday usuli kitobxon va maktab o'quvchisiga anchagina qulayliklar yaratib, g'azal mazmunini to'la anglab yetishga, mustaqil fikrlashga zamin hosil qiladi. Demak, germenevtika usulida badiiy matnga o'z tabiatidan kelib chiqqan holda yondashish, asar badiiyatini tashkil etadigan unsurlar mohiyatini chuqur anglashda juda muhim sanaladi. Xuddi shu asnodan Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini o'qib tushunish har bir o'quvchi va o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifadir. Yana shuni alohida aytib o'tishimiz joiz, bu dostonni maktab darligida o'tayotgan vaqtimizda metodlardan ham keng foydalanishimiz kerak. "Besh barmoq" metodi bu doston uchun juda ham mos. Chunki "Besh barmoq" metodi "Farhod va Shirin" dostonni har tomonlama qamrab oladi. Bu metodni dars davomida qo'llasak, o'quvchi doston qahramonlarini ham, dostonning voqialar borish jarayonini ham esda saqlab qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oybek. Asarlar. 9-tom –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti,1974.
2. Oybek. Asarlar.13-tom –Toshkent: FAN nashriyoti,1979.
3. Abdurauf Fitrat .Tanlangan asarlar.- Toshkent: Ma‘naviyat,2000.
4. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami.- Toshkent: Fan,1982.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa uyi, 2020
6. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin(To‘liq nasriy tabdili). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
7. Abdurashid Abdug‘afurov.Buyuk beshlik saboqlari.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995.